



O‘ZBEKISTON-ROSSIYA: SAVDO HAJMI BARQAROR O‘SIB BORAYOTGANI MAMNUNIYAT BILAN QAYD ETILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishida ishtirok etish uchun mamlakatimizga kelgan Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisining birinchi o‘rinbosari Denis Manturov boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuvda Rossiyaning Nijniy Novgorod va Omsk viloyatlari, Boshqirdiston va Krasnoyarsk o‘lkasi rahbarlari ham ishtirok etdilar.

Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning samimiy salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar natijalariga ko‘ra erishilgan kelishuvlarni qabul qilingan “yo‘l xaritasi” asosida amalga oshirilishi muhokama qilindi.

Savdo hajmi barqaror o‘sib borayotgani, sanoat, energetika, transport, metallurgiya, kimyo va boshqa sohalarda qo‘shma loyihalar amalga oshirilayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Tovar ayirboshlash sur‘atini saqlab qolish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida, jumladan, sanoat zonalari doirasidagi kooperatsiya loyihalarini jadallashtirish, hududlar va biznes darajasida faol hamkorlik aloqalarini davom ettirish bo‘yicha muvofiqlashtirilgan choralar ko‘rish muhim ekani ta‘kidlandi.

Shu ma‘noda, Toshkentda bo‘lib o‘tgan Hukumatlararo komissiyaning yig‘ilishi va ishbilarmonlik tadbirlarining natijalari yuqori baholandi.

Shuningdek, uchrashuv doirasida Rossiyaning yetakchi kompaniyalari rahbarlari Prezidentimizga axborot texnologiyalari, energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, kimyo, farmatsevtika, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatida loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha aniq rejalarni taqdimot qildilar.

O‘ZA

DAVLAT IDORALARI VA XALQ O‘RTASIDAGI MULOQOT MEXANIZMLARI YANADA TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyevga davlat idoralarining aholi bilan kommunikatsiyasi samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar yuzasidan axborot berildi.

Mamlakatimizda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli yangilanishlar jarayonida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini ham takomillashtirish, Xalq qabulxonalarining imkoniyatlarini kengaytirish, faoliyatiga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, jamoatchilik fikrini chuqurroq o‘rganish va qarorlar qabul qilishda uni inobatga olish tobora dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib borayotgani ta‘kidlandi.

Aholining kayfiyati, ehtiyoji va orzu-intilishlarini aniq hamda to‘liq o‘rganishda zamonaviy, professional sotsiologiya va tahliliy usullardan foydalanish zarurligi, bu islohotlar naqadar samarali bo‘layotgani haqida xolis axborot olish hamda kelgusi istiqbolga

mo‘ljallangan taraqqiyot dasturlarini to‘g‘ri ishlash chiqishning muhim omili ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Prezidentimiz xalq bilan muloqot madaniyatini izchil yuksaltirish, fuqarolarni eshitish, ularning fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda qaror qabul qilish davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo‘lishi shartligini ta‘kidladi.

Fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarga nafaqat tezkor javob berish, balki ularni tizimli tahlil qilib, sotsiologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish orqali tegishli yechimlarni taklif qilish, umuman, davlat va jamiyat o‘rtasidagi muloqot sifati hamda ishonchni mustahkamlash davlat va boshqaruv organlari, mahalliy

ijro etuvchi hokimiyat idoralarining asosiy vazifalaridan biri ekani yana bir bor ko‘rsatib o‘tildi.

Hokimiyat va aholi o‘rtasidagi doimiy muloqotning institutsional asoslarini mustahkamlab, yangicha yondashuvlarga asoslangan zamonaviy modelini shakllantirish, uni jamoatchilik fikrini o‘rganish tizimiga bog‘lash muhim ekani qayd etildi.

Mutasaddilarga xalq bilan muloqot mexanizmlarini yanada takomillashtirish, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli topshiriqlar berildi.

O‘ZA

KIMYO SANOATI – MAMLAKAT IQTISODIYOTINING STRATEGIK TARMOG‘I

Prezident Shavkat Mirziyoyev kimyo sanoatida ishlab chiqarish va eksportni oshirish hamda tannaxrni pasaytirish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Ta‘kidlanganidek, mamlakatimizda kimyo sanoatini jadal rivojlantirish va raqamlashtirish bo‘yicha aniq strategiya qabul qilingan. 2030-yilgacha tarmoq hajmini kamida ikki barobarga oshirish, mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishni 1,5 barobarga ko‘paytirish va eksport hajmini 1 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda tarmoqda umumiy qiymati 1 milliard dollarlik 21 ta yirik loyiha amalga oshirilmoqda, kelgusi uch yil uchun yana 4,5 milliard dollarlik tashabbuslar shakllantirilgan.

Taqdimotda kimyo sanoatidagi yirik korxonalarda ba‘zi ishlab chiqarish quvvatlarining eskirgan oqibatida energiya xarajatlarining yuqoriligi va raqobatbardoshlik pastligi ko‘rsatib o‘tildi. Masalan, azotli o‘g‘itlar tannarxining 55 foizgacha qismi energiya xarajatlariga to‘g‘ri kelmoqda.

Sohada energiya tejamlor texnologiyalarni joriy qilish va raqamlashtirish orqali xarajatlarni keskin qisqartirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi.

Dunyoda kimyo mahsulotlarining bozori tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda. Qo‘shni mamlakatlarda 1 milliard dollarlik mahsulotlarga talab va logistika uchun qulay sharoitlar bo‘lsa-da, mazkur salohiyatdan yetarlicha foydalanilmayotgani qayd etildi.

O‘ZA

POYTAXTDA TRANSPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 3-dekabr kuni Toshkentda transport boshqaruvini takomillashtirish va tirbandliklarning oldini olish choralariga doir taqdimot bilan tanishdi.

Keyingi yillarda poytaxtda jamoat transportini rivojlantirish bo‘yicha ancha ishlar qilindi. Avtobuslar parki ikki barobarga kengaytirilib, ularning umumiy soni 1,9 mingtaga yaqinlashdi, qatnov intervali 30 daqiqadan 15 daqiqaga qisqardi. Natijada avtobuslardan foydalanuvchilarning soni kunlik 1,4 million nafarga yetdi.

Yer osti va yer usti metropoliten liniyalarining umumiy uzunligi 70,5 kilometrga yetkazilib, bekatlar soni 29 tadan 50 tagacha oshdi. Metro bir kunda 900 ming nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatmoqda.

Shahar ko‘chalarida harakatni tashkil etishning texnik ishlari ko‘lami kengayib, 2870 ta belgi almashirildi, 2770 ta yangi belgi va 55 ta svetofor o‘rnatildi.

Shu bilan birga, aholi va transport vositalari sonining o‘sishi, shahardagi iqtisodiy jarayonlar natijasida yo‘l infratuzilmasiga yuklama keskin ortmoqda. Poytaxtning asosiy transport yo‘laklariga bosim 2 barobar ko‘paygani, keyingi yillardagi 7-8 balli tirbandliklar odatiy holga aylangani ko‘rsatib o‘tildi. Jamoat

transportidan foydalanish ulushi shaxsiy avtomobillarnikidan kamligicha qolmoqda. Bularning barchasi ekologik holatga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib kelmoqda.

Dunyo amaliyotida yo‘l harakatini boshqarishning eng samarali usuli sifatida intellektual transport tizimi (ITS) keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuvga ko‘ra, shaharlarda harakatni o‘z vaqtida nazorat qilish, tahlilini olib borish va rejalashtirish markazlashgan holda amalga oshiriladi.

Taqdimotda shu maqsadda Toshkent shahrida yagona yo‘l harakatini tashkil etish markazini yaratish taklif qilindi.

Markaz transport va piyodalar oqimlarini tahlil qilish va modellashtirish, intellektual transport tizimini joriy etish hamda boshqarish, transport master-rejasi va karkasini ishlab chiqish va joriy qilish, elektr quvvatlash infratuzilmasini rivojlantirish, individual harakatlanish vositalaridan foydalanishni rag‘batlantirish kabi vazifalar bilan shug‘ullanadi.

Davomi 2-betda

PREZIDENT OLIMPIADASI O‘YINLARINING G‘OLIB VA SOVRINDORLARI HAMDA BARCHA ISHTIROKCHILARIGA

Aziz farzandlarim!

Humatli ota-onalar, ustoz va murabbiylar!

Avvalo, barchangizni Vatanimiz hayotida o‘chmas iz qoldirgan Prezident Olimpiadasi o‘yinlaridagi muvaffaqiyatli ishtirokingiz bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Albatta, saralash bosqichlarida 100 mingdan ziyod o‘g‘il-qizlarimiz orasida g‘olib va sovrindor bo‘lgan 3 ming nafarga yaqin sizdek eng kuchli va navqiron sportchilarimizning munosib ishtiroki tufayli bu musobaqalar O‘zbekiston sporti noyob tizim bo‘lib shakllanganini bugun chuqur mamnuniyat bilan ta‘kidlashga haqlimiz.

Qariyb o‘n kun davom etgan qizg‘in va murosasiz bellashuvlarda erishilgan g‘alabalar, rekord natijalar bu fikrni yaqqol isbotlab turibdi.

Ayniqsa, og‘ir atletikachi qizlarimiz Shahnoza Haydarova, Mohinur Esonboyeva, yengil atletikachimiz Sadafbonu Nusratulloeva O‘zbekiston rekordini yangilagan, yunon-rum kurashi bo‘yicha 17 yoshli Qamariddin Xudoyberganov amaldagi Osiyo va jahon chempionlarini, Komila Sultanova, Umarali Abdujabborov, Miraslava Omelchenko kabi taekvondochilarimiz esa mamlakat chempionlaridan ustun kelib, eng yuksak shohsupalarga ko‘tarilgani tahsinga sazovordir.

Yana bir muhim jihati — bundan to‘rt yil oldin yo‘lga qo‘yilgan “Besh tashabbus olimpiadasi” tizimida kashf etilgan iqtidorli yoshlarimizdan 23 nafari ushbu Olimpiadaning g‘olib va sovrindorlariga aylandi.

Bularning barchasi Prezident Olimpiadasining yoshlarimiz uchun g‘oyat mas‘uliyatli bellashuvga aylangani va o‘zining shonli an‘analarini shakllantira boshlaganini ko‘rsatadi.

Aminman, sport sohasidagi ilk qadamlarini qadrdon mahallasidan boshlagan, bugun o‘z hududining sharafiga dadil himoya qilgan bu farzandlarimiz kelgusida jahon arenalarida Vatanimiz shuhratini butun dunyoga tarannum etadi.

Qadrl! sportchi yoshlar!

Sizlarning ishtirokingizda bo‘lib o‘tgan bellashuvlarni biz butun xalqimiz bilan birgalikda katta qiziqish va hayajon bilan kuzatib, Yangi O‘zbekistonda yuksak salohiyatli olimpiya zaxiralari yetishib

kelayotganidan qalbimiz quvonch va iftixorga to‘ldi.

Musobaqaning g‘olib va sovrindorlari, ularning ota-onalari va murabbiylarini alohida qutlagan holda bir fikrni ta‘kidlab aytmoqchiman. Aslida, bunday musobaqalarda ishtirok etishning o‘zi ulkan baxt, ulkan yutuq. Chunki bu o‘yinlar sizlarning qalbingizga Olimpiada ruhi, Olimpiada g‘oyalarini olib kiradi, jahon arenalari sari dadil borishda katta tajriba va mahorat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Hech shubhasiz, biz bu tizimni yanada takomillashtirib, uning tarkibiga kelgusi yildan boshlab, suv sporti, velosport, triatlon, qilichbozlik va jamoaviy sport turlarini ham kiritamiz. Olimpiadamizning har bir bosqichiga xalqaro sport mezonlari to‘liq tatbiq qilinadi va yuqori mahoratli sportchilarni tayyorlash uchun trenerlarni zamonaviy metodologiya va yondashuvlar asosida o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, musobaqalar natijalarini ochiq va shaffof usulda baholash uchun hakamlarning malakasi oshirib boriladi, sport turlaridan kelib chiqib, sport maktablari va to‘garaklardagi sharoitlar yaxshilanadi.

Ana shu ishlarni amalga oshirishda bu yilgi musobaqalarda to‘plagan bilim va tajribangiz, amaliy takliflaringiz bilan sizlar ham munosib ishtirok etasiz, deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, mazkur bellashuvlarning saralash va final bosqichlarini yuksak darajada tashkil etgan hududlarimiz, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari hamda mutasaddi shaxslarga, sport federatsiyalari, oliy o‘quv yurtlari, texnikum va maktablar jamoalariga, jonkuyar volontyorlarimizga, yoshlarimizni qo‘llab-quvvatlab turgan barcha sport muxlislariga, ko‘p millatli xalqimizga samimiy minnatdorlik bildiraman.

Sizlar bugun katta marralarni zabt etdingiz. Oldingizda esa bundan ham yuksak donovlar turibdi.

Barchangizga kelgusi musobaqalarda bundan ham yorqin g‘alaba va natijalar yor bo‘lishini tilayman.

Tinimsiz izlanishdan, olg‘a borishdan hech qachon to‘xtamang, aziz farzandlarim!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI UCHUN O‘Z TAKLIFINGIZNI YO‘LLANG!

Mamlakatni bilimli, fidoyi va shijoatli insonlar rivojlantiradi. O‘zbekistonda barcha islohot va rejalar xalqimizning talab va takliflariga tayanadi.

Endi buning uchun qulay imkoniyat bor — “Kelajak uchun” forumi istiqbolli tashabbuslar yo‘llanadigan ochiq muloqot maydoni. Undan asosiy maqsad soha va hududlarni rivojlantirishga jamoatchilikni jalb etish, aholi takliflarini yuzaga chiqarish, islohotlarning xalqchilligini ta‘minlashdir.

Forum O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi “Islohotlarni amalga oshirishda istiqbolli tashabbuslarni yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq o‘tkaziladi. Buning uchun mas‘ul tashkilotlar

hamkorligida tizim yo‘lga qo‘yildi, kelajakuchun.gov.uz kraud-platformasi ishga tushirildi.

Forum 3 ta bosqichdan iborat. Birinchi bosqichda tashabbuskorlar, shu jumladan, xorijdagi vatandoshlari-muz mazkur kraud-platformaga kirib, One-ID orqali ro‘yxatdan o‘tadi. 5 ta ustuvor yo‘nalishdan birini tanlab, taklif va loyihalari mazmunini yozadi. Platformada har bir fuqaro 5 tagacha tashabbus yo‘llashi hamda jamoa bo‘lib qatnashishi mumkin.

Davomi 2-betda

POYTAXTDA TRANSPORT SOHASINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Boshlanishi 1-betda

Markaz intellektual transport tizimining operatori hisoblanadi. Mazkur platforma kameralar, datchiklar, GPS vositalari orqali yig‘ilgan ma‘lumotlarni, xususan, sun‘iy intellektidan foydalangan holda tahlil qilib, tirbandliklar statistikasini yuritish va ularni bashorat qilish, marshrutlarni

optimallashtirish, svetofor fazalarini adaptiv tarzda o‘zgartirish, yo‘l-transport hodisalari ro‘y bergan paytda favqulodda xizmatlarni chaqirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi.

Tizimning joriy qilinishi natijasida yo‘llarda transport harakatining o‘rtacha vaqti va favqulodda xizmatlarning YTH joyiga yetib kelish vaqti qisqarishi, asosiy

yo‘llardagi tirbandliklar hamda yo‘l-transport hodisalari kamayishi kutilmoqda.

Prezidentimiz takliflarni ma‘qullab, pilot loyihani joriy yilning o‘zidayoq ishga tushirib, kelgusi yillarda uni kengaytirish, 2030-yilga qadar uni hududlar bilan integratsiya qilishni topshirdi.

O‘zA

MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI UCHUN O‘Z TAKLIFINGIZNI YO‘LLANG!



KELAJAK UCHUN ISTIQBOLLI TASHABBUSLAR FORUMI

Boshlanishi 1-betda

Ikkinchi bosqichda barcha yo‘llangan tashabbuslar ekspertlar tomonidan o‘rganib chiqiladi, ularning tavsiyasi asosida takomillashtiriladi. Yakunda eng muhim deb topilgan tashabbus va g‘o-yalar keyingi bosqichga o‘tadi.

Uchinchi bosqichda mualliflar o‘z tashabbuslarini Mentorlar kengashi ekspertlariga taqdimot qiladi. Muhokamalarda

eng dolzarb deb topilgan tashabbuslar “Top-50” va “Top-10” tarzida saralanadi.

Forumning yakuniy bosqichi Toshkent shahrida o‘tkaziladi. Uning sanasi va aniq joyi haqida qo‘shimcha xabar beriladi.

G‘olib deb topilgan 10 ta eng ilg‘or tashabbus O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdimot qilinadi. Yakunda ma‘qullangan tashabbuslar hayotga

tatbiq etiladi. Ularning mualliflari moddiy rag‘batlantirilib, loyihalari davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Tanlangan tashabbuslarni tijoratlashtirish va moliyalashtirishga Biznesni rivojlantirish banki hamda boshqa tijorat banklari, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Forumga kelib tushgan boshqa tashabbuslar davlat dasturlari, tarmoq yoki hududlar bo‘yicha “yo‘l xaritalari”ni shakllantirish uchun Hukumat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Forum doirasida barcha jarayonlar Strategik rivojlanish va islohotlar agentligi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi.

Forumda qatnashib, mamlakatimiz taraqqiyoti uchun o‘z taklifingizni yo‘llang! Aynan Sizning tashabbusingiz g‘olib deb topilishi mumkin.



JIZZAXDA O‘SISH VA O‘ZGARISHLAR DAVRI

Jizzaxga tashrif doirasida o‘tkazilgan uchrashuv va muloqotlar yurtimiz taraqqiyoti, ayniqsa, bu viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun juda muhim ahamiyat kasb etdi. Prezidentimiz joylarda qilinayotgan ishlar, infratuzilma loyihalari hamda aholining kundalik muammolarini hal etish bo‘yicha vazifalarni belgilab berdi.

Tashrif davomida davlatimiz rahbari Jizzax shahridagi yirik infratuzilma loyihalaridan biri — yangi transport uzelin ko‘zdan kechirib, uning ahamiyatini alohida ta’kidladi. Mazkur loyiha doirasida 290 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilib, 700 metrli yo‘l o‘tkazgich va 4 kilometrli yangi avtomobil yo‘li qurib bitkazilgani viloyat markazining transport harakatini yengillashtirishda hal qiluvchi omil bo‘lishi qayd etildi. Shuningdek, aholining kundalik harakatlanishi, tez yordam mashinalari yurishi, umuman, qatnovning sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining navbatdan tashqari sessiya boshlanishida “Biz oldimgiza yuksak maramlarni qo‘yib, Yangi O‘zbekistonda barpo etish yo‘lida astoydil mehnat qilaymiz, yangiliklar yarataymiz va natijalarga erishaymiz. Viloyatni qanday og‘ir sharoitlardan olib chiqqanimizni, Jizzaxning har bir tumanida bo‘layotgan katta-katta o‘zgarishlarni, odamlarning xursandchiligini ko‘rib, juda quvonaman va faxrlanaman”, degan ishonch so‘zlari hech bir mubolag‘asiz, har bir jizzaxlikning yuragidan joy oldi.

Mamlakatimiz yetakchisi keyingi yilda viloyatga 4,5 milliard dollar xorijiy investitsiya olib kelish, eksport qiymatini 500 million dollarga yetkazish, 175 ming odamni ishli qilish, 15 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish borasida qattiq ishlash kerakligini ko‘rsatib o‘tdi. Ushbu topshiriqlarni bajarishda viloyatimizda imkoniyat ham, salohiyat ham mavjud.

Keyingi yillardagi islohotlar tufayli Jizzax oldingi qoloq, agrar hududdan sanoati tez o‘sayotgan viloyatga aylanadi. Oddiy misol: sakkiz yil oldin viloyatdagi ish o‘rinlarining 42 foizi qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelardi. Bugun viloyatdagi 310 mingga yaqin kishi sanoat va servis sohalaridagi yuqori daromadli ish bilan band. Shuning o‘ziyoq turli soha va tarmoqlarda ish o‘rinlari kengayib borayotganini anglatadi.

Prezidentimiz sessiyada joylardagi dolzarb masalalarni eshitib, ularni manzilli hal etish bo‘yicha aniq ko‘rsatmalar berdi. Xususan, hayot sifatini oshirish, ish o‘rinlari ochish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy infratuzilmani yaxshilashga



Erkin XOLMATOV,
Jizzax viloyati ekologiya va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i

qaratilgan aniq rejalarni belgilandi. Ushbu vazifalar viloyatimizdagi islohotlarning izchil davom etishiga yangi sur‘at bag‘ishlaydi.

Biz, faollar Prezidentimizning ushbu topshiriqlarini o‘z vaqtida va yuksak mas‘uliyat bilan bajarishga tayyormiz. Yurt taraqqiyoti yo‘lida har bir tashabbus, har bir loyiha amalda samara berishi uchun butun kuch va salohiyatimizni safarbar etamiz.

viloyatlarga qatnashi 80 foizgacha kamayadi. Natijada xalqning vaqti, mablag‘i tejalandi. Muhimi, turli sarongarchiliklardan qutuladi.

Tibbiyot klasteri doirasida Qozon federal universiteti bilan uzoq muddatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu mahalliy mutaxassslarning malakasini oshirish, xalqaro standartlarni o‘rganish, yangi diagnostika va davolash usullarini joriy etishga xizmat qiladi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, endi kadrlar tayyorlashning o‘zi ham yangi bosqichga chiqishi kerak.

Davlatimiz rahbari bemor uchun asosiysi shifokorning bilimi, malakasi va halol xizmati ekaniga alohida urg‘u berdi. Bu soha mas‘ullari, mutaxassslar uchun ustuvor vazifani belgilab beradigan fikr bo‘ldi. Darhaqiqat, eng zamonaviy binolarning ham qiymati sifatlari xizmat bilan oshadi, mustahkamlanadi. Ha, tibbiyotimiz odamlarni rozi qiladigan xalqchil tizimga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz boshchiligidagi islohotlar Jizzax viloyati tibbiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bir paytlar orzu bo‘lgan sharoitlar bugun ro‘yobga chiqmoqda. Endi eng katta vazifamiz ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanib, xalqimizga chin dildan xizmat qilishdir.



Konstitutsiya — huquqiy davlat kafolati

YANGI O‘ZBEKISTON: YANGI SUD TIZIMI — YANGI TAMOYILLAR



Xolmo‘min YODGOROV,
O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi raisi

Yangi O‘zbekiston sud tizimini tubdan demokratlashtirish, bunda sudlar faoliyatini tashkil etish va uni boshqarish, mustaqilligini amalda ta‘minlash jarayonida sudyalarni hamjamiyati organlarining faol ishtirokiga alohida ahamiyat qaratilayotgani zamirida katta maqsad bor. Bunda sudni bugungi kundagi shiddatli islohotlar talablariga moslashtirish orqali har qanday holatda adolatni qaror toptirishga qodir bo‘lgan odil sudlov tizimini shakllantirish masalasi turibdi.

Rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasi va bu boradagi xalqaro hujjatlarda belgilangan tamoyillardan kelib chiqib aytish mumkinki, sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini amalda ta‘minlashning asosiy kafolatlaridan biri samarali faoliyat yuritadigan sudyalarni hamjamiyati organlari hisoblanadi.

BMTning Sud organlari mustaqilligiga oid asosiy prinsiplarida sudyalarni o‘z manfaatlarini himoya qilish, kasbiy tayyorgarligini oshirish va mustaqilligini saqlash maqsadida sudyalarni birlashmalarini yoki boshqa tashkilotlarni tashkil etishi va ularga kirishi mumkinligi qayd etilgan.

Prezidentimiz 2021-yil 22-fevralda BMTning Inson huquqlari bo‘yicha kengashi 46-sessiyasida sudyalarni kengashlari faoliyatini yanada takomillashtirishga qaratilgan g‘oya va tashabbuslarni ilgari surgan edi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Davlatimiz rahbarining ushbu tashabbuslari o‘sha paytda ko‘plab nufuzli xalqaro ekspertlar tomonidan xayrixohlik bilan qabul qilinib, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining qonuniy manfaatlarini ta‘minlashda sudyalarni kengashlarining juda muhim o‘rin tutishi, bunday kengashlarni tuzishdan ko‘zlangan asosiy maqsad sudyalarni korpusini har tomonlama munosib nomzodlar bilan shakllantirishdek o‘ta muhim va murakkab jarayonlarni tashqi bosimdan himoya qilish ekanini e’tirof etilganidir.

Ayni payt O‘zbekiston taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi bir bosqichga o‘tilgach, sudyalarni hamjamiyati organlari faoliyatida ham muayyan o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlashning xalqaro standartlari va rivojlangan demokratik davlatlarning ilg‘or tajribasiga to‘la mos keladigan ochiq, oshkora va muqobil tizimini yaratish maqsadida mamlakatimiz sud tizimi tarixida ilk bor sudyalarni hamjamiyatining eng muhim organlaridan biri bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tashkil etildi. Unga sudyalarni hamjamiyatining konstitutsiyaviy organi maqomi berildi.

Sudyalarning oliy malaka hay‘ati, sudyalarning malaka hay‘atlari vakolatlariga kiradigan masalalar — sudyaning intizimiy javobgarligi, sudyaning vakolatlarini to‘xtatib turish yoki muddatidan

ilgari tugatish, sudyaning daxlsizligini ta‘minlash, sudyalik qasamyodi va sudyalarni odob-axloqi qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilish borasidagi faoliyatida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi.

Lekin so‘nggi yillardagi islohotlar dinamikasi odil sudlov tizimida sudyalarni hamjamiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning o‘rni va roli, amaliy ahamiyatini kuchaytirish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Mana shu hayotiy zaruratdan kelib chiqib, Prezidentimizning shu yil 24-noyabrda “Sudyalarni hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqlikini oshirish hamda sud mustaqilligini kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida qator yangi vazifalar belgilandi.

Sudyalarni hamjamiyati organlari orasida Sudyalarni oliy kengashi faoliyat mezonlari, maqsad va vazifalari nuqtayi nazaridan nihoyatda muhim o‘rin tutadi. Kengash konstitutsiyaviy qoidaga muvofiq, sudyalarni korpusini shakllantiradi hamda sud hokimiyati mustaqilligini prinsipiga rioya etilishini ta‘minlaydi. Shuningdek, sudyalarning mustaqilligini va daxlsizligini ta‘minlash, korruptsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish hamda sudlarni moliyalashtirishda ishtirok etish kabi vazifalarni amalga oshirishda asosiy rolni bajaradi.

Farmonning amaliy ahamiyati shundaki, u mana shunday muhim vazifa va vakolatlarga ega bo‘lgan kengash faoliyatini umumiy tirof etilgan xalqaro norma va prinsiplar asosida tashkiliy va institutsional jihatdan yanada takomillashtirishga huquqiy asos bo‘ladi.

Hujjatda nazarda tutilgan sudyalarni navbatdagi o‘n yillik muddatga tayinlash (saylash) tartibini bekor qilib, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni dastlab besh yil muddatga, keyinchalik muddatsiz davrga tayinlash (saylash) tartibi o‘rnatilishi:

birinchidan, sudyalarning mustaqilligini va daxlsizligi kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, odil sudlovga oid xalqaro talab va standartlarda belgilangan sudyalarning almashitirilmasligi prinsipi ta‘minlanishiga olib keladi;

uchinchidan, sudyalarni sudyalik faoliyatini amalga oshirishda barcha tuzilmalar va mansabdor shaxslarning ma‘muriy buyruqbozliklaridan xoli bo‘lishini ta‘minlaydi.

Bir so‘z bilan ifodalaganda, sudyani professional faoliyatida odil sudlovni to‘laqonli amalga oshirish uchun turli ichki va tashqi ta’sirlardan xoli qilib, uning mustaqilligini va daxlsizligini ta‘minlaydi. Pirovardida sudyaning o‘z ishiga nisbatan ichki ishonchi mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ilg‘or xorijiy tajribalarga ko‘ra, aksariyat davlatlarda sudyalarni muddatsiz davrga tayinlanishi bois, ushbu prinsip orqali sudyalarning pensiya yoshiga yetguniga qadar vakolatini asossiz to‘xtatish, muddatidan ilgari tugatish, boshqa lavozimga o‘tkazish, qayta tayinlash bo‘yicha muayyan cheklolvar belgilangan.

qatorida sudyaning axloqiy yuksalishi, qalban ulg‘ayishi, vijdonan poklanishi, uning ma‘naviy kamolotini ta‘minlovchi mezonlar majmui ishlash chiqilib, qonun hujjatlarida aks ettiriladi.

Shubhasiz, sudya ma‘naviyatining eng muhim kategoriyalarini belgilash va ularni milliy qonunchilikka singdirish odil sudlovning ma‘naviy-axloqiy va huquqiy asoslarini takomillashtirishga olib keladi. Bu esa, o‘z navbatida, odil sudlovning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu normalarning milliy qonunchilikda aks ettirilishi Sudyalarni axloqining Bangalor prinsiplari uchinchinchi tamoyili — “halollik va vijdonlilik sudya o‘z majburiyatlarini lozim darajada bajarishining zarur shartlari”ni implementatsiyasini ta‘minlaydi. Zero, odil sudlov ma‘naviy-axloqiy asoslarining mustahkam poydevorini ham sudyaning “halolligi”, “kasbiy layoqatliligi”, “sudyalik odobi qoidalariga rioya etishi” singari muhim tushunchalar tashkil etadi.

Mazkur tushunchalarning aniq mezonlari qonunchilikka kiritilishi sudyalik kasbi talab qiladigan vazifasiga sodiqlikni keltirib chiqarib, uning jamiyatni oldidagi majburiyatlarini oshiradi. Sudyaning o‘z xizmat vazifasi hamda odamlar taqdiriga munosabatini o‘zgartirib, tizimda korruptsiya holatlarining oldi olinishiga erishiladi.

Kengash tarkibini shakllantirish tartibi sudyalarni hamjamiyati organlari ishtirokini oshirish orqali yanada takomillashtiriladi. Jumladan, kengashning doimiy asosda faoliyat yurituvchi sudyalari lavozimiga nomzodlar tegishli sud sudyalari malaka hay‘atlari tomonidan tavsiya etiladi. Bunda kengashning doimiy asosda faoliyat yurituvchi sudyalari lavozimiga, qoida tariqasida, sudya sifatida kamida 7 yil ishlagan sudyalarni nomzodi ko‘rsatilishi mumkinligi to‘g‘risidagi yangi tartib o‘rnatilishi, amaldagi qonun hujjatlaridagi bo‘shliq — kengash raisining a’zolari qanday mezonlar asosida tanlashiga aniqlik kiritadi.

Bu normal kengash tarkibini shakllantirish bilan bog‘liq qator xalqaro standartlar va samarali konseptual modellarni qoidalariga hamohang. Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudi qaroriga ko‘ra, sudning mustaqilligini baholashda sudyalarni kengashiga sudyalarni tayinlash tartibi, xususan, tayinlanishni amalga oshiruvchi organlarning xarakteri sudning o‘zini o‘zi boshqaruvda darzardir. Buning uchun siyosiy organlar ta’sirini kamaytirish maqsadida sud korpusi mustaqil ravishda o‘z vakillarini kengashga saylashi muhimdir. Venetsiya komissiyasining ta’kidlashicha, muayyan sudyalarni kengashi tarkibi bir-biridan farq qilishi mumkin, biroq umumiy talabga ko‘ra, uning kamida yarmi o‘z hamkasblari saylagan sudyalardan tashkil topishi lozim.

Sudyalarni orasidan kengash a’zoligiga nomzodlar Ukrainada sudyalarni sayditi, Litvada sudyalarning umumiy majlisi, Gruziyada sudyalarning o‘zini o‘zi boshqarish organi tomonidan saylanadi.

Qayd etilganlarga ko‘ra, qonunda kengash a’zosisga nisbatan talablarni belgilash, a’zolikka nomzod tegishli sudyalarning malaka hay‘atlari tomonidan kengashga taqdim etilishi va munosib deb topilgan muqobillik asosidagi nomzodlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga tavsiya etilishi tartibi muhim hisoblanadi.

Farmonda belgilangan vazifalar ijrosi, xususan, kengash a’zolarini tanlash mezonlarining qonunchilikda aniq nazarda tutilishi nomzodlarning obyektiv, shaffof hamda adolatli tanlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Sudyalarni hamjamiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan navbatdagi yangi demokratik tamoyil bevosita sudyalarni malaka hay‘atlari hamda sudyalarni oliy malaka hay‘atlariga qo‘shimcha vakolatlar berilishi bilan bog‘liq. Ya’ni Sudyalarni oliy kengashining sudyalik lavozimlariga nomzodlar bo‘yicha xulosalarni quyidagi sudyalarni hamjamiyati organlari tomonidan taqdim etilishi nazarda tutadi:

— sudyalarni malaka hay‘atlari — harbiy sudlar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ma‘muriy sudlari sudyalari, hududiy harbiy sudlar, tumanlararo, tuman, shahar sudlari raislari, rais o‘rinbosarlari va sudyalari lavozimlariga nomzodlar bo‘yicha;

— Sudyalarni oliy malaka hay‘ati — Oliy sud sudyalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri sudlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri ma‘muriy sudlari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudining raislari va rais o‘rinbosarlari lavozimlariga nomzodlar bo‘yicha yangi tartib o‘rnatilmoqda.

Mazkur normal sudyalarni hamjamiyati organlari jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan sudyalarni malaka hay‘atlari va sudyalarni oliy malaka hay‘atlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun ularning mas‘uliyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, farmonda belgilangan yangi demokratik tamoyillar sudyalarni hamjamiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish orqali ularning o‘z vazifalarini bajarish jarayonida davlat organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari ishtiroki va aralashuvini keskin kamaytirishga olib keladi.

Natijada sudyalarni hamjamiyati organlari va uning muayyan tuzilmalari o‘zining eng muhim fundamental funksiyasini — sudyalarning manfaatlarini to‘laqonli ifodalash imkonini oshirib, yangi O‘zbekistonning strategik maqsadi — jamiyat hayotida adolat o‘rnatilishining huquqiy asoslarini mustahkamlaydi.

1973-yildan buyon Jizzax viloyati sog‘liqni saqlash tizimida faoliyat yuritaman. Turli lavozimlarda ishlaganman. Jumladan, viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasini ham boshqarganman. O‘sha paytlardagi imkoniyatlar bilan bugungi sharoitlarning orasida juda katta tafovut bor. Hatto oddiy jarrohlik amaliyotini bajarish uchun ham sharoit yetishmas, moddiy baza nochor edi. Ayrim rejalarni orzu ham qilolmasdik.



Minavar SODIQOV,
tibbiyot faxriysi

Prezidentimiz tashrif chog‘ida Jizzax viloyati ko‘p tarmoqli tibbiyot markazini ko‘rib, sohaga sarflangan ulkan investitsiya va e’tiborni yana bir bor his etdim. Zamonaviy yetti qavatli majmua kuniga 400 nafargacha bemor qabul qiladi, 344 o‘ringa ega, 100 milliard so‘mdan ortiq qiymatdagi MRT, MSKT, laboratoriya va jarrohlik uskunalar bilan jihozlangan. Muhimi, poliklinikadan tortib, kardiokirurgiya, neyrokirurgiya, oftalmologiya va urologiyagacha — barcha yo‘nalishdagi xizmatlar bir majmuada jamlangan.

Bu tibbiyot sohasidagi tizimli islohotlarning amaliy natijasidir. Bunday klasterli yondashuv tez tashxis qo‘yish, sifatlari davolash, shifokorlar o‘rtasida hamkorlik o‘rnatish va aholi uchun qulaylikni bir vaqtning o‘zida ta‘minlaydi. Yuqori texnologiyali operatsiyalarga navbatlar bir necha barobar qisqarayotgani loyihaning eng katta ijtimoiy samarasidir.

Markaz ishga tushirilishi natijasida Jizzax viloyati aholisining Toshkent yoki ko‘shni

Konstitutsiya – inson qadri,
erkinlik, tenglik va adolat garovi!

HAYOTIMIZ, TAFAKKURIMIZ, INSONIY QADRIYATLARNI YANGILAYOTGAN XALQ IRODASI IFODASI

Alisher Navoiyning “Podshohning suvrati qonun, qonunning ruhi adolatdir. Adolat mamlakat ravnaqining bosh mezonidir”, Forobiyning “Qonun adolatga xizmat qilsa, jamiyatni saodatga yetaklaydi”, Abu Ali ibn Sinoning “Adolat har qanday oliy hujjatning ruhidir” degan hayotiy soʻzlari davlatchilik taraqqiyotida qonun ustuvorligi, Konstitutsiyaning nechogʻliq ulkan ahamiyat kasb etgani inʼikosidir.



Mirzayusup RUSTAMBOYEV,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat
ko‘rsatgan yurist,
Konstitutsiyaviy komissiya a‘zosi

Xalqimizning xohish-irodasi, siyosiy madaniyati va tashabbuskorligi mahsuli boʻlgan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga ikki yildan oshdi. Ahamiyatli jihati, unga kiritilgan har bir oʻzgartirish va qoʻshimchalar oʻtgan vaqt davomida amaliy ifodasini koʻrsatib, hayotiy ehtiyoj va muammolarga mustahkam huquqiy yechim boʻlmoqda, bugungi tezkor oʻzgarishlar, global tendensiyalar va xalqimizning orzu-istaklarini oʻzida mujassam etib, mamlakatimizning taraqqiyot surʼatiga munosib huquqiy poydevor vazifasini oʻtamokda.

Oʻzbekiston Prezidentining “Bugun biz tarixning yanada masʼuliyati va hal qiluvchi pallasida turibmiz. Mamlakatimiz taraqqiyotida mutlaqo yangi davrga qadam qoʻymoqdamiz. Chunki yangilangan Konstitutsiyamizni qabul qilish bilan biz Uchinchi Rennessans uchun



huquqiy poydevor yaratdik” degan fikrlari ham Bosh qonunimiz hozirgi va kelajak avlod oldidagi zarur va hayotiy hujjat ekani belgilandi.

Shu jihatdan yangi Oʻzbekistondagi keng koʻlamli islohotlar, inson qadriini ulugʻlashga qaratilgan gʻoyalari va yangilarni ruhining amalda namoyon boʻlayotgani mamlakat taraqqiyotida mutlaqo yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu jarayonda yangi tahrirdagi Konstitutsiya davlatning asosiy qonuni sifatida zamon talablariga mos holda jamiyat rivojining tabiiy va hayotiy zaruratiga aylandi.

Konstitutsiya muqaddimasida uni davlatchilgimiz rivojining 3000 yildan ziyod tarixiy tajribasiga, shuningdek, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qoʻshgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va maʼnaviy merosiga tayanib qabul qilganimiz yozib qoʻyilgan. Joriy yilda Samarqand shahrida oʻtkazilgan UNESCOning 43-sessiyasi doirasidagi xalqaro anjumanda Samarqand tarixi qayta baholangan, ilmiy dalillar va arxeologik topilmalarga asoslangan xulosaga koʻra, shaharning tarixi ilgari aytilgandek 2750 yil emas, balki 3000 yildan ham qadimgi ekanini tasdiqlangani hamda dunyo madaniyati markazi sifatida yana bir bor tan olinishi yuqoridagi fikrlarning amaliy ifodasidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlari bilan bogʻliq normalar 3 barobar koʻpaytirildi. Shunga muvofiq ijtimoiy davlat modelini amalga oshirish mexanizmlari izchil tatbiq etilmoqda. Bu borada “Inson qadri uchun” tamoyili ustuvor boʻlgan, ijtimoiy adolat taʼminlangan, aholining ehtiyojmand qatlamlari samarali himoya qilingan, kambagʻallikni minimum darajaga tushirishga erishilayotgan ijtimoiy davlat barpo etish yoʻlida tizimli ishlar qilinmoqda.

Maʼlumotlarga koʻra, 2015-yildan buyon dunyoda global iqtisodiy oʻsish surʼati oʻrtacha

3 foizni tashkil etib, oldingi oʻn yillikka nisbatan sekinlashish kuzatilmoqda. Agar besh yil oldin dunyoda 650 million kishi kambagʻallikka yashagan boʻlsa, bugun ularning soni 800 milliondan oshdi. Shu bois, 2030-yilgacha global miqyosda kambagʻallikka barham berish BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarining birinchisi sifatida belgilangan.

Jahonda shunday tendensiya kuzatilayotgan bir sharoitda mamlakatimizda kambagʻallikni kamaytirish borasidagi islohotlar samara bera boshlagani quvonarli. Aholini ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash eng muhim vazifa sifatida belgilanib, bu borada shart-sharoit yaratish, ayniqsa, muhtoj qatlama maqsadli koʻmak berishga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Zero, buyuk alloma Bahouddin Naqshbandning “Peshvo boʻlsang, xalqning ogʻirini koʻtar. Shu bilan davlatning ruhi tirik boʻladi”, degan soʻzlari hayotiy haqiqatdir.

Birgina misol, oxirgi yillarda yurtimizda kambagʻallik darajasi 35 foizdan 6,6 foizgacha qisqartirilgani, yaʼni 7,5 million kishi kambagʻallikdan chiqarilgani hamda bu boradagi islohotlarning izchil davom etirilayotgani ijtimoiy davlat tamoyilining amaliy natijasi boʻlmoqda. Shu bilan birga, oxirgi 7-8 yilda iqtisodiyotimiz 2 karra oʻsgani, joriy yil yakuni boʻyicha aholi jon boshiga daromad 3500 dollarga yetishi bu borada muhim omildir.

Bugun mamlakatimizda 667 mingdan ziyod kam taʼminlangan oilaga bolalar nafaqasi va moddiy yordam uchun 3 milliard soʻm, 245 mingdan ortiq oilaga elektr energiyasi va tabiiy gaz kompensatsiyasi uchun 40 milliard soʻm, 9500 ga yaqin oilaga homiladorlik va tugʻish nafaqasi uchun 24 milliard soʻmdan ziyod mablagʻ ajratilgani ijtimoiy himoyaning amaliy natijalaridir. Shu bilan birga, nogironlarni boʻlgan shaxslar, oʻzgalar parvarishiga muhtoj yakkaxalqiy yolda yolgʻiz yashaydigan keksalarga tizimli koʻmak berilmoqda.

fin tex kabi yuqori daromad keltiradigan sohalarda startaplar ekotizimini rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratilyapti. Joriy yil boshidan buyon startaplarga 270 million dollar yoki oʻtgan yilgiga nisbatan 4 barobar koʻp xorijiy investitsiya kiritildi. Bu yoʻnalishdagi ishlar yanada kuchaytirilib, birgina Jahon banki bilan hamkorlikda qiymati 100 million dollarlik yangi loyihalar paketi amalga oshirilmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada taʼlimga oid normalarning kengayishi va takomillashtirilishi taʼlim imkoniyatlari, ijtimoiy adolat hamda kelajakka investitsiyaning konstitutsiyaviy kafolati sifatida har bir fuqaro, jumladan, kam taʼminlangan yoshlarga taʼlim olish imkoniyatini oshirgani, oʻqitish sifati va ilmiy salohiyatni rivojlantirishga zamin yaratgani bilan ahamiyatlidir. Zero, dunyoda taʼlim olish, ilm-fan infratuzilmasini yaxshilashga ehtiyoj har qachongidan yuqori. Xalqaro ekspertlarning hisob-kitobiga koʻra, jahonda savodsizlikning yillik iqtisodiy zarari 1,4 trillion AQSH dollarini tashkil etadi. Bu esa kelajakda mamlakatlar taraqqiyotiga oʻnganmas salbiy taʼsir koʻrsatishi kunday ravshan.

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz yetakchisi Prezidentlik faoliyatining dastlabki davridan boshlab barcha uchun taʼlim imkoniyatlarini kengaytirishni ijtimoiy muammolarni hal qilishning eng samarali yoʻli sifatida belgilab berdi. Natijada uzluksiz taʼlim tizimiga eʼtibor tubdan oʻzgarib, bu borada yangi davr boshlandi. Oʻtgan sakkiz yilda qariyb 500 ta yangi umumtaʼlim maktabi barpo etilgani, oliy oʻquv yurtlari soni 77 tadan 202 taga, talabalar soni esa 250 mingdan 1,5 millionga yetgani, Prezident maktablari, buyuk olim va mutafakkirlar nomi bilan ataladigan ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritayotgani bu boradagi muhim natijalardir.

Keyingi sakkiz yilda yurtimizda taʼlim va ilm-fan uchun xarajalar 6 karra oshirilib, 378 trillion soʻmni tashkil etgani, yuzlab yangi bogʻchalar, maktab, texnikum va oliyogʻhlar qurilgani, taʼlim va ilm dargohlarini zamon talablari asosida jihozlash, ustoz va murabbiylarning mehnatini munosib qadrlashga qaratilgan dasturlar, qisqacha aytganda, masʼuliyati va mashgaqqali mehnat asosida bu koʻrsatkichga erishilyapti. Mamlakatimizda qisqa muddatda bogʻchalar soni 5200 dan 38 mingtaga, qamrov darajasi 27 foizdan 78 foizga yetkazilgani, tarbiyachilar maoshi maktab oʻqituvchilari oyiliga tenglashtirilgani, ushbu muassasalaridagi rahbar va pedagoglar maoshi qariyb 2 barobar oshirilganini taʼkidlash lozim.

Shu bilan birga, oliy taʼlim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilib, miqdor va sifat jihatidan ilgari kuzatilganing ijobiy koʻrsatkichlar qayd etilmoqda. Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotiga koʻra, 2024/2025-oʻquv yili boshida 18-23 yoshli aholini oliy taʼlimga qamrab olish koʻrsatkichi 47,7 foizga yetgan. Vaholanki, ushbu koʻrsatkich 2014-yilda 6,8 foizni, 2015-yilda esa 7 foizni tashkil qilgan.

2025-yilda Oʻzbekistondagi 23 ta oliy taʼlim muassasasi QS (Quacquarelli Symonds) xalqaro reytingining Markaziy Osiyodagi nufuzli universitetlari roʻyxatidan oʻrin olgan boʻlsa, Times Higher Education Impact Rankings natijalariga koʻra, 2024-yilda yurtimizdagi 53 ta OTM ushbu global reytingga kiritildi va ulardan 7 tasi yetakchi 1000 ta oliy taʼlim muassasasi qatoridan joy oldi.

Xorijlik yoshlarning ham Oʻzbekistondagi oliy taʼlim muassasalarida oʻqishga qiziqishi ortmoqda. Birgina misol: 2024-yilda Oʻzbekistondagi oliy taʼlim muassasalarida tahsil olayotgan chet ellik talabalar soni 12,5 mingni tashkil qildi va bu 2017/2018-oʻquv yildagiga nisbatan 9,6 barobar koʻp koʻrsatkich demakdir.

Talabalar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar ham sifati bosqichiga kirib bormoqda. Xususan, 2024-yilning oʻzida 27,3 ming oʻrinli talabalar turar joyi barpo etilgani hamda yotoqxonaga joylashish tizimi toʻliq raqamlashtirilgani ham salmoqli amaliy natijalardir.

Albatta, mazkur raqamlar Konstitutsiyamizda taʼlim uchun kafolatlangan huquqlar samarasidir. Shu bilan birga, dual taʼlimning keng joriy etilishi, masofaviy taʼlimning yoʻlga qoʻyilishi, shuningdek, oliy taʼlim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilayotgani oʻqitish sifati oshishiga samarali taʼsir oʻtkazyapti.

UNESCO statistika instituti maʼlumotlariga koʻra, jahonda ilmiy va madaniy muassasalar rahbarlarining 25 foizi, taʼlim sohasi boshqaruvchilarining 30 foizi, tadqiqotchilarning 33 foizi xotin-qizlardir. Bu esa ayollar huquqlarini taʼminlashda tengsizlik hamon saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.



Shu jihatdan xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini toʻliq taʼminlash, ularning qadri-qimmatini ulugʻlash yangi Oʻzbekistonning davlat siyosatida yetakchi oʻringa qoʻyilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, xotin-qizlarning turli soha va tarmoqlarda Vatanimizning jadal taraqqiyoti uchun munosib hissa qoʻshayotgani alohida eʼtiborga sazovordir. Masalan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar ulushi oʻrtacha 20 foizni tashkil etgan boʻlsa, hozirda bu raqam 35 foizga yetdi. Hozir Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat aʼzolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda.

Ayniqsa, xotin-qizlarning oliy taʼlimga qamrovini oshirish yoʻlidagi saʼy-harakatlar natijasida yurtimizdagi oliy taʼlim muassasalar talabalarining 52 foizdan ortigʻini xotin-qizlar tashkil etmoqda. 2024-yilda magistraturada oʻqiyotgan 15 mingga yaqin xotin-qizning 100 milliard soʻmga yaqin kontrakt puli toʻlab berildi.

Hozir 6200 dan ortiq xotin-qiz ilmiy faoliyat bilan shugʻullanayotgani, ilmiy ishlanmalarining 25 foizini olimlari ayollarimiz yaratayotgani ham jamiyatda ularning oʻrni mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Ular orasida xalqaro darajada eʼtibor etilayotgan ilm-fan vakillarining borligi barchamizga cheksiz faxr-iftixor bagʻishlaydi, yoshlarimizni yangidan yangi yutuqlarga undaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, huquqni qoʻllash amaliyoti bilan bogʻliq qator normalar hayotda oʻzining amaliy ifodasini topmoqda. Bu borada quyidagilarni alohida qayd etish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, Bosh qonunimizdagi “Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, toʻgʻridan toʻgʻri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi” degan normadan kelib chiqqan holda



davlat organlari, ayniqsa, sudlar tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyani bevosita koʻrgan holda qarorlar qabul qilish amaliyoti joriy etildi. Xususan, sud amaliyoti tahliliga koʻra, jinoyat ishlari boʻyicha sudlar hujjatlarida 2023-yilga nisbatan 4,8 baravar koʻp, fuqarolik ishlari boʻyicha sudlar — 5,6 baravar koʻp, iqtisodiy ishlar boʻyicha sudlar — 13,6 baravar koʻp hamda maʼmuriy ishlar boʻyicha sudlar 13 baravar koʻp Konstitutsiya va uning moddalariga toʻgʻridan toʻgʻri havola qilgan.

Ikkinchidan, Konstitutsiyada inson bilan davlat organlarining oʻzaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha

ziddiyat va noaniqliklar inson foydasiga talqin etilishi belgilangan. Mazkur norma ham inson huquqlarini himoya qilishga toʻgʻridan toʻgʻri taʼsir koʻrsatadi. Bu borada davlat organlari va tashkilotlarida manfaatlar toʻqnashuvini aniqlash, oldini olish va bu borada samarali nazorat tizimini oʻrnatishga qaratilgan “Manfaatlar toʻqnashuvi toʻgʻrisida”gi qonun ijrosini samarali tashkil etish boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi.

Uchinchidan, insonning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquq va erkinliklari, shaʼni va qadri-qimmatini daxlsizligi, shaxsning sudlangani uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos boʻlishi mumkin emasligiga oid kafolatlar kuchaytirildi. Xususan, qarindoshining sudlangani va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilish va uni oʻtash chogʻida fuqarolar huquqlarini cheklash uchun asos boʻlmisligi belgilandi.

Toʻrtinchidan, bolalar huquqlarini himoya qilish, ularga nisbatan oilaviy toʻravonlik sodir etganlik uchun javobgarlik kuchaytirilishi, shuningdek, “Bolalarni zoʻravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish toʻgʻrisida”gi qonun qabul qilinishi ham Konstitutsiyada bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash hamda himoya qilish boʻyicha davlatning zimmasidagi majburiyatini taʼminlaydi.

Beshinchidan, Konstitutsiyamizga muvofiq, ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar huquqlarini kafolatlash maqsadida ularning Oliy Majlisning Inson huquqlari va Bola huquqlari boʻyicha vakillariga, inson huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat qilish, ogʻir va oʻta ogʻir jinoyatlar sodir etgani uchun ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarning saylov va referendumda ishtirok etish huquqlari

dasturi amalga oshirilmoqda. Kambagʻal oilalar reyestriga kiritilgan oila aʼzosi uchun ijtimoiy soliq 3 yil mobaynida 1 foiz stavkada toʻlanishi belgilandi.

Yettinchidan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har kimning sogʻligʻini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan, davlat sogʻliqni saqlash tizimi, tibbiy sugʻurtani rivojlantirish choralari koʻrishi mustahkamlangan.

Shu maqsadda soʻnggi yillarda birgina tibbiyot sohasiga 230 trillion soʻm yoʻnaltirilib, joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushirildi, 1244 tasi rekonstruksiya qilindi, jihozlandi. Natijada birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foiz oshib, tibbiy xizmat aholiga ancha yaqinlashdi. Ilgari asosan poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400 dan ortigʻi hududlarda amalga oshirilmoqda. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami boʻyicha xalqaro tajribaga asoslangan yangi model joriy etilmoqda. Qisqa muddatda hududlarda 490 ta muassasa qayta tashkil etilib, yuridik maqomga ega boʻlgan 350 ta mustaqil oilaviy poliklinika faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Pirovardida mamlakatimiz aholisining turmush sharoiti yaxshilanib, yurtimizda oʻrtacha umr davomiyligi erkaklar oʻrtasida 71 dan 73 yoshga, xotin-qizlar orasida esa 76 dan 77,5 yoshga uzaydi.

Muqaddima qismida yangi tahrirdagi Konstitutsiya Oʻzbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qoʻshni davlatlar bilan doʻstona munosabatlarini hamkorlik, oʻzaro qoʻllab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilgan holda qabul qilingani qayd etilgan.

Shu bilan birga, xalqaro munosabatlarning toʻla huquqli subyekti sifatida Oʻzbekiston chet davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va koʻp tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosat yuritishi belgilab qoʻyilgan. Bu jihatdan keyingi yillarda mamlakatimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 13 ta rezolyutsiyasi qabul qilindi. Oʻzbekiston EKOCOC, Inson huquqlari boʻyicha koʻmita, Statistika komissiyasi kabi nufuzli tuzilmalarga aʼzo etib saylandi.

Joriy yilning oʻzida Oʻzbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi oʻrtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik toʻgʻrisida tarixiy bitim imzolandi. Poytaxtimizda oʻtkazilgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi mintaqaviy mamlakatlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga koʻtardi. Shu bilan birga, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi munosabatlar kuchaydi. Mintaqamiz nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozitsiyani namoyon etmoqda.

Konstitutsiyamiz yangi Oʻzbekistonning huquqiy asosini mustahkamlaydi va mamlakatning demokratik rivojlanishi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini taʼminlashda asosiy hujjat sifatida xizmat qiladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya aholining davlat hayotidagi ishtirokini kuchaytirish, inson huquqlarini taʼminlash va ijtimoiy adolati himoya qilishda asosiy mexanizm boʻlib xizmat qiladi. Bu esa barqaror taraqqiyot va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Jarayon



Tahlil

Iqtisodiy munosabatlar hamda rivojlanishlarning bir uchi tashqi sarmoya — investitsiyalarga borib taqaladi. Ko'plab mamlakatlar tajribasida shunday, investitsiyalar iqtisodiyotni harakatlantiruvchi asosiy kuchga aylangan. Har qaysi sohada tashqi sarmoya ulushining ortishi rivojlanish tendensiyasini belgilab beryapti.

QONUNYI KAFOLAT

INVESTORLARNI JALB ETAYOTGAN ENG MUHIM OMIL

Biroq investitsiya jalb etish uchun loyiha istiqboliga ishonch bo'lishi bilan birga mamlakat hududida erkin faoliyat yuritish kafolatlari va tegishli huquqiy sharoitlar mavjudligi ham talab etiladi. Ana shunday investitsiyaviy muhitni yaratish bo'yicha qilinayotgan keng qamrovli ishlar, yirik islohotlar, bozorlarni liberallashtirish, biznes muhitini yaxshilash O'zbekistonga chet ellik investorlar qiziqishini oshirmoqda.

Bu jarayon dunyodagi murakkab iqtisodiy vaziyatda sodir bo'layotganiga qaramay, O'zbekistonning barqaror makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, jumladan, yalpi ichki mahsulotning izchil o'sishi, sanoat va moliya sektorlarining doimiy kengayib borayotgani investorlarni o'ziga jalb etmoqda. Ular ushbu mamlakatga jadal rivojlanayotgan, dunyoga keng ochilayotgan diyori, katta salohiyatga ega istiqbolli bozor sifatida qaramoqda. Iqtisodiy islohotlar esa ishonchni yanada mustahkamlayapti.

Asosiysi, investorlarning huquq va manfaatlarida O'zbekiston Konstitutsiyasi normalarida mustahkamlangan. Xorijiy investorlarni himoya qiluvchi qonunchilik ham aynan Konstitutsiya normalariga tayangan holda shakllantiriladi. Ya'ni ushbu qonuniy asos shaffof va barqaror biznes muhitini ta'minlashda muhim omildir. Qolaversa, Konstitutsiya bilan mustahkamlab qo'yilgan qonun ustuvorligi, xususiy mulk daxlsizligi, iqtisodiy subyektlarning tengligi va kamsitmaslik tamoyillari kabi asoslar xalqaro hamkorlar ishonchini oshirishda



Marius DAN,
O'zbekiston Respublikasi
Milliy investitsiya
jang'armasi boshqaruvchisi
va menejeri, "Franklin
Templeton Asset
Management" MCHJ xorij
kompaniyasi bosh direktori

Ya'ni Milliy investitsiya jamg'armasi tashkil etilishi ushbu yo'nalishda yangi bosqichni boshlab berdi. Ayni paytda jamg'arma milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan 15 ta yirik davlat korxonasida 25 foizdan 40 foizgacha bo'lgan ulushlarga

salohiyati mavjud. Ularning har biri O'zbekiston iqtisodiyoti va bu yerdagi islohotlar jarayonida ishtirok etishni ta'minlaydigan juda jozibador tarmoqlardir. Masalan, energetika sohasini olaylik. O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari o'sishi bilan birga aholi soni ham oshib boryapti. Bu elektr energiyasiga talab ham ortayotganini anglatadi. Demak, ushbu sohada portfel kompaniyalarni rivojlantirish bo'yicha katta salohiyatga egamiz. Boshqa tarmoqlar haqida ham shunday deyish mumkin.

Albatta, har qanday investitsion qarorlar ortida muayyan xavf-xatarlar ham bo'ladi. Ammo, bizningcha, O'zbekiston misolida potentsial imkoniyatlar har qanday ehtimoliy xavf-xatarlardan sezilarli darajada ustun turadi. Iqtisodiyotning bazaviy dinamikasi, islohotlar jarayoni va so'nggi yillarda amalga oshirilgan o'zgarishlar, ayniqsa, yaqin kelajakdagi istiqbol tahlil qilinsa, ko'plab asosiy xatarlar bartaraf etilgani ko'rinadi.

Shunga qaramay, aksiyadorlik kapitaliga investitsiya kiritish oson jarayon emas. U yuqori shaffoflik, sifatli korporativ boshqaruv va xalqaro investorlarni ishonтира oladigan aniq standartlarni talab qiladi. Ana shu o'tish jarayonini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekiston xavfsiz investitsiya muhiti yaratish hamda investorlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirishga katta e'tibor qaratyapti. Ya'ni hozirgi vaqtda mamlakat xorijiy investorlar huquqlarining to'liq himoyasini ta'minlaydigan keng qamrovli huquqiy bazaga ega. Muhim jihatlardan biri esa



hal qiluvchi shartlardandir. Bularning bari mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy mexanizm

Qonuniy kafolat bo'lgan joyda ishblarmonlik muhiti ham rivojlanib boradi. Yangi O'zbekistonning keyingi yillardagi jadal taraqqiyoti bunga misol. Unda xorijiy investitsiyalar va kompaniyalar ulushi ham sezilarli oshib boryapti. Hatto investitsiyalarni jalb etishning yangicha mexanizmlari qo'llanilmoqda.

2024-yil avgustda Prezident Shavkat Mirziyoyevning tegishli qarori bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzurida Milliy investitsiya jamg'armasi aksiyadorlik jamiyati tashkil etilgani hamda uning ishonchli boshqaruvchisi va menejeri sifatida "Franklin Templeton Asset Management" xorijiy kompaniyasi belgilangani buning bir misoli. Dunyodagi eng yirik professional aktivlarni boshqaruvchi ushbu kompaniya 1947-yilda AQSHda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda 30 dan ortiq mamlakatda faoliyat yuritadi.

Milliy investitsiya jamg'armasining Franklin Templeton boshqaruviya tayinlanishi O'zbekistonning xorij kompaniyalariga bo'lgan ishonchining yana bir namunasi bo'ladi. Mamlakat amaliyotida yangilik bo'lgan tuzilma davlat korxonalarni modernizatsiyalash va milliy kapital bozorini rivojlantirish dasturining bir qismi sifatida ta'sis etildi. Bu mamlakatda aksiyadorlik kapitaliga sarmoya kiritishga tayyor investorlarni jalb qilish uchun yaratilgan birinchi mexanizm bo'lib, ungacha O'zbekiston, asosan, to'g'ridan to'g'ri va qarz shaklidagi investitsiyalarni qabul qilib kelgan.



ularida korporativ boshqaruv tizimi, moliyaviy samaradorlik, ichki audit va risklarni boshqarish mexanizmlarini jahon standartlariga moslashtirishga qaratilgan transformatsiya dasturlari amalga oshiriladi. Ushbu sa'y-harakatlar investitsiya oqimlarini ko'paytirishga, shuningdek, davlat budgetiga dividendlarning kuchliroq tushishini ta'minlashi kerak bo'lgan yuqori rentabellikka qaratilgan.

Jamg'armaga birlashtirilgan barcha kompaniyalar qiymatida sezilarli o'sish

himoyalanganini his etishiga imkon beradi. Ya'ni har qanday holatda ham investorlar faoliyati qonun bilan kafolatlanganiga guvoh bo'laymiz. Bu yangi O'zbekistonning keyingi yillardagi eng katta islohotlaridan biri deyish mumkin. Ushbu jihat mamlakatga investor va investitsiyalar oqimini oshirmoqda.

O'zbekiston Konstitutsiyasi esa mamlakatning islohotlar, taraqqiyot va huquqiy institutlarni mustahkamlash yo'lidagi qat'iy itilishini aks ettiradi.



Sardor TOLLIBOYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Insoniyat o'tmishiga nazar tashlasak, ilk tamaddunlar daryo bo'ylarida, umumdor zaminlarda shakllanganini ko'ramiz. Qadimdan inson o'z hayotini tabiat qonunlariga uyg'un holda qurishga intilgan. Har bir kashfiyot, har bir ixtiro — tabiatning o'zidagi tartib va muvozanatdan ilhomlanilgan harakat edi. Tabiat inson uchun ustoz, hayot maktabi, yashash manbai bo'lgan.

Ammo yangi davrga kelib, ushbu uyg'unlik asta-sekin zaiflashdi. Ilm-fan va texnologiya yutuqlari odamlarning imkoniyatini kengaytirdi. Shu bilan birga, tabiat bilan muvozanatni ham buzdi. Bugungi taraqqiyot ko'p hollarda tabiat bilan hamohang emas, balki unga qarshi yo'nalgan kuchga aylanoqda. Atmosferaning ifloslanishi, iqlim o'zgarishlari, suv tanqisligi, chiqindilar muammosi...

Shu o'rinda insoniyat oldida bitta muhim savol turibdi: qanday qilib iqtisodiy o'sishni ta'minlagan holda tabiiy muvozanatni saqlab qolish mumkin? Bu savol bugungi global kun tartibining eng muhim masalaridan biriga aylandi.

Izlanishlar, fikrlar va tajribalar jarayonida insoniyat "yashil" iqtisodiyot yo'lini tanlamogda.



Bu shunchaki yangi iqtisodiy model emas, balki tafakkur tarzidagi o'zgarish, tabiat va taraqqiyot o'rtasidagi qadimiy uyg'unlikni tiklashga qaratilgan harakattir. Ushbu yo'l inson o'zini tabiatning bir bo'lgi sifatida anglash, uning resurslariga nisbatan mas'uliyatli va ongli yondashuvni shakllantirishga undaydi.

"Yashil" iqtisodiyot qayta tiklanuvchi energiya manbalari yoki ekologiya haqidagi tushuncha emas, balki insonning dunyoqarashi, ongi, madaniyati va mas'uliyatining yangi bosqichidir. Bu tushuncha inson va tabiat munosabatlariga yangicha nazar solishni talab etadi.

Inson faoliyatining barcha jabhasida tabiiy qonunlar bilan uyg'unlikni izlash, barqaror taraqqiyotni ma'naviy qadriyat sifatida qabul qilish demakdir. Bu yo'lda iqtisodiy o'sish tabiat bilan ziddiyatda emas, balki uning qonuniyatlarini bilan hamohang kechishi lozim. Zero, taraqqiyot raqamlar, statistika yoki iqtisodiy ko'rsatkichlarda emas, balki osmon musaffoligi, suvning sofligini asrash, tuproqning hosildorligini muhofaza etish va insonning ma'naviy tinchligida ham namoyon bo'ladi.

"Yashil" iqtisodiyot insonni iste'molchi emas, balki bunyodkor, tabiatning hamkori sifatida ko'radi. Bu munosabat markazida foyda emas, balki hayot bardavomligi turadi. Shu bois, "yashil" iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy strategiya, balki yangi tamadduniy ong, yangi madaniyatning boshlang'ich nuqtasidir.

Global ustuvor yo'nalish

Bugungi global iqtisodiyotda "yashil" energiya va ekologik barqarorlik yangi strategik yo'nalish

sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu yo'nalish nafaqat iqtisodiy islohotlar o'zanini, balki butun dunyo tafakkurini o'zgartirmoqda. Insoniyat endi tabiatni foyda manbai emas, aksincha, hayotning yagona asosi sifatida ko'ra boshladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yakuniga kelib, jahon bo'yicha "yashil" iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar qiymati 2,3 trillion dollardan oshib ketdi. Bu raqam iqtisodiy faoliyatning ko'lami bilan birga mohiyatini ham o'zgartirdi — kapital endi tabiatga qarshi emas, balki uni asrash, tiklash va muhofaza qilishga yo'naltirilmogda.

Masalan, Xitoydagi ulkan quyosh fermaci yiliga 300 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu 150 mingdan ziyod xonadonni toza, qayta tiklanuvchi energiya bilan ta'minlaydi. Bunday loyihalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga insonning tabiat bilan uyg'un hayot sari qadam tashlayotganini ko'rsatadi.

Dunyo energetikasidagi ushbu o'zgarishlar kelajak qiyofasini belgilamogda: toza, cheksiz va iqtisodiy jihatdan samarali energiya tizimi barpo bo'lmoqda. Bu jarayonda eng muhim yutuq — inson ongining o'zgarishi, ya'ni foydani emas, muvozanatni, iste'molni emas, barqarorlikni maqsad sifatida ko'ra boshlaganidir.

Amaliy ifoda va milliy strategiya

Bu global o'zgarishlar zaminida O'zbekiston ham barqaror taraqqiyotning "yashil" modeliga izchil qadam qo'ymoqda. Mamlakatimizda ekologik mas'uliyat va iqtisodiy samaradorlik o'zaro uyg'un kechishi uchun tizimli asos yaratilmogda.

O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasidagi islohotlar mamlakat iqtisodiy siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu strategiyada iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan birga resurslardan oqilona foydalanish va tabiiy muhitni muhofaza qilishni milliy rivojlanish modelining ajralmas qismiga aylantirish ko'zda tutilgan.

2023-yilda "Energetika islohotlari uchun innovatsion uglerod resurslarini qo'llash" loyihasi doirasida energetika tizimida muhim yangilanishlar

namoyon bo'lib, yillik hisobda 40-50 million dollarlik foyda keltirishi kutilmogda.

Bunday natijalar O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini nafaqat nazariy yoki huquqiy jihatdan, balki amaliy mexanizmlar orqali hayotga tatbiq etishga kirishganini tasdiqlaydi.

Barqaror yuksalish poydevori

So'nggi yillarda mamlakatimiz sanoat va infratuzilma sohalarida ham ekologik madaniyat yangi bosqichga ko'tarilmogda. Bu o'zgarishlar texnik modernizatsiya bilan hamohang tarzda tafakkur yangilanishi, ishlab chiqarish madaniyatida mas'uliyat va barqarorlik tamoyillari qaror topayotganidan darak beradi.

Birgina misol: keyingi vaqtda yirik sement va metallurgiya korxonalarining 140 tasida zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatildi. Bu chora-tadbirlar atmosfera havosini muhofaza qilish bilan bir qatorda ishlab chiqarish jarayonini xalqaro ekologik standartlarga moslashtirish, eksport salohiyatini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sanoat korxonalari o'z hududida va tutash maydonlarda "yashil belbog"lar barpo etmoqda.

2024-yilning bahor va kuz mavsumlarida 11,8 million tup daraxt va buta ko'chati ekilib, davlat o'rmon fondining foydalanilmayotgan 7000 gektar yeri o'zlashtirildi. Bu sa'y-harakat tabiatni tiklash barobarida agroiqtsodiy muvozanatni ta'minlashga ham xizmat qilmoqda. Zero, har bir daraxt kislorod manbai bo'lish bilan birga iqlim barqarorligining iqtisodiy kafolatidir.

Osmondek musaffo

"Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida mehnat bozorida yangi yo'nalishlar paydo bo'lmoqda. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "yashil" iqtisodiyotga izchil o'tish natijasida O'zbekistonda 2030-yilgacha kamida 200 mingga yaqin ish o'rni ochiladi.

Bu yangi sohalar — qayta tiklanuvchi energiya muhandisligi, ekologik audit, "yashil" qurilish, energiya samaradorligi, resurs tejamon texnologiyalar kabi yo'nalishlarda mutaxassislarga talabni keskin oshirmogda. Natijada ta'lim tizimida ham yangi fakultetlar, ilmiy-tadqiqot markazlari va kasbiy standartlar shakllanmogda.

Shunday qilib, "yashil" iqtisodiyot faqat iqtisodiy siyosat yo'nalishi emas, balki butun ijtimoiy hayotning yangi madaniyatiga aylanib bormogda. Bunda barqarorlik, mas'uliyat va tabiiy muvozanat tushunchalari inson faoliyatining asosiy qadriyatiga aylanoqda.

Albatta, bu yo'l murakkab va uzoq muddatli jarayon. Atmosfera ifloslanishi, chiqindilarni qayta ishlash tizimi yetarlicha shakllanmagani, sanoatda energiya tejamon texnologiyalarni joriy etish sur'atining hali talab darajasiga yetmagani bugungi real muammolardir.

Xalqaro tajriba "yashil" moliya tizimi, ya'ni ekologik loyihalarni investitsiya bilan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari sohaning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, drayveriga aylanoqganini ko'rsatayapti. Bu yo'nalishda O'zbekistonda ham muayyan ishlar qilinmogda.

Jumladan, "yashil" obligatsiyalar bozori, ekologik fondlar va imtiyozli kredit dasturlari yaratilayotir.

Bu iqtisodiy islohotlar energiya samaradorligini oshirish orqali jamiyat ongini yangilash, insonning tabiatga munosabatini ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

Bugun yurtimiz tashqaridan rivojlanish yo'lidagi inson qadri, mehnatning qiymati va tabiat bilan uyg'unlik ustuvor ahamiyatga ega. Chunki taraqqiyot raqamlarda emas, balki tinchlikda, bolalar nafas olayotgan havoning musaffoligida namoyon bo'ladi.

Yer inson qo'li bilan qurilayotgan inshootlardan ham qadimiy va bardavom. Agar odamzod uni asrasa, tabiat ham unga barqaror hayot, toza havo va sog'lom kelajakni in'om etadi.





Ilmiy salohiyatning ishlab chiqarishga uzluksiz joriy etib borilishi zamonaviy iqtisodiyotda barqaror o‘rni ta’minlaydigan asosiy omillardan biridir. Olimlar tomonidan etilgan nazariy modellar, texnologik yechimlar va eksperimental natijalar tadbirkorlik muhitining amaliy ehtiyojlari bilan sintezlanganida yangi mahsulotlar yaratish, resurs tejovchi texnologiyalar joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish imkoniyati kengayadi. Hozirgi global raqobat sharoitida bunday integratsiya milliy iqtisodiyotning texnologik yangilanish sur’atini belgilaydigan strategik vosita sifatida yuzaga chiqmoqda.

Qishloq xo‘jaligi kabi strategik tarmoqda ana shunday hamkorlik, ayniqsa, muhim. Negaki mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish va agrotexnik jarayonlarni modernizatsiya qilish uchun ilmiy yechimlar izchil tatbiq etilishi zarur. Bu borada esa Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Fanlar akademiyasi hamda Savdo-sanoat palatasi hamkorligida tuzilgan reja-grafik asosida tashkil etilayotgan olimlar va tadbirkorlar uchrashuvi muhim platforma bo‘lib xizmat qilayapti.

Bu galgi muloqotda parrandachilik, chorvachilik, paxtachilik, g‘allachilik va bog‘dorchilik yo‘nalishlariga oid ilmiy ishlanmalar tadbirkorlarga taqdim etildi. 80 dan ziyod olim va 150 dan ortiq tadbirkor ishtirok etgan mazkur tadbir besh yo‘nalish bo‘yicha patentga ega 50 ga yaqin tayyor texnologiya videomateriallari orqali namoyish qilindi. Xususan, ekologik barqarorlik, resurs tejamkorlik va eksport salohiyatini oshiradigan loyihalarda alohida e’tibor qaratildi. Uchrashuv yakunida qator ishlanmalar bo‘yicha 11 ta hamkorlik memorandumini imzolandi. Bu esa agrar sohada ilm bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya nechog‘liq samara berayotganining amaliy tasdiqi bo‘ldi. Demak, qishloq xo‘jaligi sohasidagi muloqot va hamkorlik platformalari mamlakat ilmiy salohiyatini iqtisodiy rivojlanish drayveriga aylantirish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etishga shubha yo‘q.

Islohot odimlari

FERMER VA DEHQONGA DARHOL FOYDA OLIB KELADIGAN YECHIM

Abduqodir RASABOYEV,
Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, texnika fanlari nomzodi:

— So‘nggi yillarda agrar sohada rivojlanayotgan texnologik yechimlar qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirishda yangi bosqichni belgilab berdi. Sohada yuz berayotgan o‘zgarishlar, yangi texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar biz, tadqiqotchilarni amaliyotga yaqin va dehqonga darhol foyda beradigan yechimlar haqida o‘ylashga undaydi. Xususan, urug‘ sifati, biologik faolligi va hosildorlikka ta’sir etuvchi omillar haqidagi ilmiy tasavvurlar kengaygani sari saralash jarayonini takomillashtirishga oid yangicha yondashuvlar talab etilmoqda.

Sodda qilib aytganda, urug‘ sifati butun hosilga ta’sir qilishi yaxshi ma’lum. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, jamoamiz bilan qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘ini elektrofizik xossalari bo‘yicha saralovchi, takomillashtirilgan elektr saralagich qurilmasi ishlab chiqdik. Bu qurilma urug‘ni elektr maydonida saralaydi, uning massasi, o‘lchami, zichligi va boshqara muhim



ko‘rsatkichlarini ajratib beradi. Natijada urug‘ning unuvchanligi oshadi, nihol tez o‘sadi, dehqonning mehnati yanada samarali bo‘ladi.

O‘tkazilgan tajribalar urug‘larning laboratoriya va dala sharoitidagi unuvchanligi mos ravishda 6-9, 15-18 foiz oshishini ko‘rsatdi. Nihollar 7-10 kunda o‘sib rivojlanadi. Hosildorlik 15-20 foiz ko‘payadi.

Qurilmadan Toshkent viloyatining Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, O‘rta Chirchiq tumanlaridagi fermer xo‘jaliklari, shuningdek, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumanidagi qishloq xo‘jaligi korxonalarini foydalanib, natijalar yuqori bo‘lgani ma’lum qilindi. Ushbu qurilma chigit, arpa, sholi, bug‘doy kabi asosiy ekinlar urug‘ini saralashda ishonchli bo‘lib, ishgalanish orqali hosil bo‘ladigan elektr maydonida mayda sabzavot urug‘larini tahlil qilish imkonini ham beradi.

Tuzilishi sodda, energiya sarfi kam va ko‘chma tarzda ishlatish imkoniyati mavjud bo‘lgani tufayli qurilma dehqon va fermer xo‘jaliklari uchun qulay texnologik vositaga aylandi. Saralangan urug‘larning biologik ko‘rsatkichlari yaqinligi, unuvchanlik va hosildorlik yuqori bo‘lishi agrar tizimda barqarorlikka erishishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, jamoamiz tomonidan yaratilgan ko‘chma qobiqlash qurilmasi urug‘ yuzasiga himoyalovchi va oziqlantiruvchi birikmalarni bir maromda qo‘llash imkonini beradi. Bu esa o‘simlik morfogenezinining dastlabki bosqichlarini tez va to‘g‘ri rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sohada innovatsion yechimlarni joriy etish jarayoniga davlat darajasida qaratilgan e’tibor ushbu ishlanmaning amaliyotga tatbiq etilishini rag‘batlantirmoqda. Ilmiy muassasalar, fermer xo‘jaliklari va tadbirkorlar o‘rtasida shakllanayotgan hamkorlik har bir texnologiyani tezkor sinovdan o‘tishi va iqtisodiy kapitalga aylanishini osonlashtiradi. Yaratilgan elektr saralagich agrar sohada texnologik yangilanishga xizmat qilib, mamlakatdagi innovatsion yondashuvlar qatoridan o‘rin olishiga ishonchimiz yuqori.

ILM, TADBIRKORLIK va AMALIYOT UCHLIGI haqqoniy natijaga erishish asosi

ANIQ RAQAMLARGA TAYANGAN SUG‘ORISH USULI



Musurmon ZIYATOV,
Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori:

— Qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish jarayonida olimlar, tadbirkorlar va fermerlarning bir davrada yig‘ilib, amaliy natija beradigan yechimlar ustida bosh qotirishi sohadagi muammolarni hal etish yo‘lidagi eng muhim qadamlardan. Zero, dala sharoitida sinab ko‘rilgan har bir yangi texnologiya ortida ilmiy izlanish, ishlab chiqarish tajribasi va tadbirkorlik mas’uliyati mujassam. Sug‘orish tizimlarini yangilash, suv resurslarini tejash, hosildorlikni oshirish bo‘yicha qo‘llanayotgan usullar ham aynan ana shunday hamkorlik samarasidir. Biz ishlab chiqqan qurilma ilmiy laboratoriyadagi tajribalar, fermerlar savollari va ehtiyojlari, agrar sohada faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish bilan suv bilan ta’minlash jarayonini

Bugun respublikamizda g‘o‘zani parvarishlash jarayonida suv tejovchi texnologiyalar, xususan, tomchilatib sug‘orish usullari keng tatbiq etilyapti. Shunga qaramay, o‘simlikning suvga talabini aniqlash, sug‘orish muddatini to‘g‘ri belgilash va bu jarayonni boshqarish qo‘plab fermer xo‘jaliklari uchun murakkab masala bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun g‘o‘zani suv bilan ta’minlash jarayonini ilmiy asosda aniqlaydigan hamda aqlli texnologiyalar yordamida boshqaradigan maxsus qurilma yaratdik. Mazkur qurilma o‘simlikning suvga ehtiyojini real vaqt rejimida kuzatish, daladagi namlik o‘zgarishiga qarab tezkor qaror qabul qilish va sug‘orish jarayonini aniqlik bilan yo‘lga qo‘yish imkonini beradi.

G‘o‘zani o‘sinh davrida suv bilan ta’minlash ehtiyoji bir xil bo‘lmaydi. U o‘sinh bosqichlariga qarab o‘zgarib boradi. Tadqiqotlarimiz g‘o‘za shonalash davrigacha bo‘lgan bosqichda umumiy suv talabining qariyb 20 foizi, shonalash va gullash fazasida 60 foizi, pishish fazasida qolgan 20 foizi kerak bo‘lishini ko‘rsatdi.

EKOLOGIK SOF, MOLIYAVIY NAF KELTIRUVCHI YANGILIK

Feruza MAMEDOVA,
Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agroteknologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori:

— Global ekologik muammolar — haroratning oshishi, havodagi kimyoviy ifloslanish, allergik kasalliklar ko‘payishi kabi omillar butun dunyo agrar siyosatini qayta ko‘rib chiqish zaruratini tug‘diryapti. Paxtachilik sohasi ham bundan mustasno emas. Ishlab chiqarishda tabiiylik, kimyoviy moddalarisiz mahsulot yetishtirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish talabi keskin ortdi. Shu jarayonda olimlar, tadbirkorlar va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik barqaror rivojlanish uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etyapti. Qishloq xo‘jaligida joriy etilayotgan har bir innovatsiya ortida tadqiqotchilarning ilmiy izlanishi, ishlab chiqarish va bozor ehtiyojini yaxshi anglagan biznes vakillarining fikrlari, shuningdek, davlat tomonidan sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli dasturlar turibdi.

Mana shunday sharoitda g‘o‘zapoyaning ekologik sof, organik va tabiiy rangga ega navlarini yaratish bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlarimiz bugungi talabga to‘la



uyg‘un keladi. Respublikamizda asosan oq tolali paxta navlari yetishtirilsa-da, jahon tajribasida tabiiy rangli tolali paxtalar katta maydonlarda ekilyapti. Bu navlarning afzalligi shundaki, bo‘yoq va kimyoviy ishlov talab qilmaydi, allergik ta’siri yo‘q, ekologik tozaligi yuqori va ularga nisbatan bozor talabi tobora ortib bormoqda. Shu bois, ilmiy izlanishlarimiz jarayonida jigarrang va yashil tolali, tola chiqimi yuqori, vegetatsiya muddati barqaror, biotik va abiotik stresslarga chidamli yangi navlarni yaratdik. Ushbu navlar iqtisodiy samaradorligi va ekologik afzalligi bilan odatiy oq navli paxtalardan ajralib turadi.

Tarixga nazar tashlasak, O‘zbekistonda tabiiy rangli paxtalar 1938-1948-yillarda yetishtirilgan, ammo bo‘yoq sanoatining keskin rivoji tufayli unga ehtiyoj pasaygan.

Bugungi ekologik vaziyat fonida esa kimyoviy bo‘yoqlarga talab qisqaryapti, tabiiy tolalarga ehtiyoj yil sayin oshmoqda.

Rangli paxtaning yana bir katta afzalligi — uni qayta ishlash xarajati kam, ishchi kuchi sarfi past. Shu bois, bozordagi narxi oq tolali paxtanikiga nisbatan qariyb ikki baravar yuqori baholanaadi.

Tadqiqotlarimiz davomida yaratgan qo‘ng‘ir tolali tizma tola chiqimi, tola uzunligi, mikroneyr umumiy ko‘rsatkichlari, chigit vazni va tezlashgan jihatdan respublikamizda keng yetishtiriladigan oq tolali navlarga deyarli teng keladi. Shu bilan birga, tabiiy organik mahsulot sifatida ekologik afzalligi juda yuqori. Ayni yo‘nalishda yashil tolali g‘o‘za navlarini yaratish ustida ham ilmiy ishlarni davom ettiryapmiz.

Albatta, bunday ishlanmalar faqat laboratoriya doirasida qolib ketmasligi muhim. Xususan, tadbirkorlar, investitorlar va fermer xo‘jaliklari rahbarlari bilan o‘tkazilgan uchrashuv va amaliy sinovlar jarayonida ushbu navlarning iqtisodiy foydasi, bozordagi ustunligi va ekologik qiymati yana bir bor tasdiqlandi. Davlat darajasidagi islohotlar — organik mahsulotlar bozorini kengaytirish, suv tejamkor texnologiyalarni joriy etish, yer resurslaridan oqilona foydalanish siyosati ana shunday ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishga yo‘l ochyapti.

modda ham, radiatsiyaviy ta’sir ham yo‘q. Demak, “CB feed”ni cho‘chimay, parrandalarga va chorva mollariга berish mumkin.

CHORVACHILIK BOZORIDA ORGANIK, ARZON VA SAMARALI MAHSULOT

Dilshod YO‘LDOSHEV,
Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi Quyunchilik seleksiyasi va genetika markazi bo‘lim mudiri, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi:

— Qishloq xo‘jaligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror ustunlaridan biri bo‘lib turgan paytda chorvachilik sohasida ozuqa xavfsizligi, mahsulot sifati va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari davlat darajasida alohida e’tibor qaratilayotgan yo‘nalishga aylanganiga guvoh bo‘lyapmiz. Bu bejiz emas. Oziqlantirish tizimi — chorvachilikning yuqori, mahsulotdoriq asosiy qismini tashkil etadi. Odatda sholi kepagiga chorva yeiyishi qiyin bo‘lgan, ko‘pincha chiqarib tashlanadigan yoki yoqib yuboriladigan chiqindi sifatida qaraladi. Biz bu resursni qattiq fazali fermentatsiya orqali qayta ishladi: uning tarkibidagi qattiq, hazm bo‘lmaydigan tolalarni parchaladik va keyin “trichoderma lignorum”

nomli foydali zamburug‘ shtammini o‘stirdik. Bu zamburug‘ tabiiy antiseptik ta’sirga ega bo‘lib, ishqoriy holat muvozanatini barqarorlashtiradi, zararli mikroorganizmlarni jilovlaydi. Natijada olingan yangi mahsulot — “CB feed” ozuqaviy qo‘shimchasi tarkibida bacillus subtilis bakteriyalarining ulushi grammiga bir milliondan ortiq miqdorga yetdi. Bu mikroorganizmlar oshqozon-ichak tizimini barqarorlashtirib, ozuqaning organizmga singishini sezilarli darajada yaxshilaydi. Qo‘shimchani broyler jo‘lari ratsionida sinovdan o‘tkazdik. 35-42 kunlik yetishtirish jarayonida unga minimal (5 foizgacha) darajada aralashtirib borganimizda mahsuldorlik 4 foizdan 16 foizgacha oshganini kuzatdik. Toksikologik tekshiruvlar Singapur va Yaponiya laboratoriyalarida ham o‘tkazildi. Xulosalar bir xil — mahsulotda zaharli



Loyiha MUNIS dasturi doirasida amalga oshirilib, O‘zbekistonda birinchi marta qattiq fazali fermentatsiya orqali ozuqa ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. Bu, o‘ylaymizki, iqtisodiy jihatdan ham muhim qadam.

Albatta, bunday natijaga faqat laboratoriya sharoitida erishish deyarli imkonsiz. Tadqiqot davomida fermerlar bilan muntazam muloqotda bo‘ldik, tadbirkorlar bilan imkoniyatlarini muhokama qildik, ozuqa ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan texnologik bosqichlar ustida birga ishladik. Ishlab chiqarish bilan so‘nggi uchrashuvimizda ham eng ko‘p qayd etilgan fikr shu bo‘ldiki, sohadagi muammolarni faqat ilmiy yondashuv va amaliy tajriba birlamchi bo‘lgan holatdagi hal qilish mumkin.

Biz yaratgan ozuqaviy qo‘shimcha va yangi fermentatsiya texnologiyasi esa ilm, tadbirkorlik va amaliyot uchligining real natijaga aylangan namunasi. Shu tamoyil asosida ishlash davom ettirilsa, O‘zbekiston dunyo chorvachilik bozorida organik, arzon va samarali mahsulotlari bilan, albatta, raqobatbardosh bo‘lib, o‘zining mustahkam o‘mini egallaydi. Men bunga ishonaman.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Asliddin ABDURAZZOQOV
tayyorladi.

Alibek RUSTAMOV,
filologiya fanlari doktori,
akademik

Bir narsa sifatlarining og'zaki yoki yozma bayoni "tavsif", suvrati, shakli, rasmi yo sxemasi esa tasvir bo'ladi. Tavsfidan kishida tushuncha hosil bo'ladi, tasvirdan tasavvur vujudga keladi. Masalan, bir mashinaning tuzilishi va ishini bayon qilish bu o'sha mashinaning tavsifi bo'ladi. Shu mashinaning rasmi yoki tuzilish sxemasi uning tasviri bo'ladi. Yana bir misol: miya tuzilishini so'z bilan tushuntirish tavsif, uning rasmi yoki sxemasi tasvir.

Ba'zan "tasvir" so'zi bayonga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Ammo u faqat badiiy bayonni anglatadi yoki tavsif tasvir darajasida bo'lganini bildiradi. Masalan, yozuvchi parovozni biror narsaga o'xshatsa yoki "parovoz pishqirib kelmog'da", desa, aslida bu ham tavsif bo'lsa-da, ya'ni so'z bilan bayon etilgan bo'lsa ham asosida tasavvur yotgani uchun "tasvir" deyish mumkin. Shunday qilib, "tasvir" so'zi "tavsif" so'zi o'rinda faqat badiiy tavsifga nisbatan va ko'chma ma'noda qo'llanishi mumkin ekan.

"Chopmoq" bilan "yugurmoq" fe'llari orasida ham farq bor, lekin bir-biriga yaqinlashib keladigan ma'nolari ham kuzatilgan. Bu fe'llarni ma'no jihatdan yaqinlashtirgan harakat bolalarning chopishi va yugurishidir. Bolaning chopishi bilan yugurishida aslida farq bor. Agar bola o'zini ot mingandek tasavvur qilib, uni qamchilagandek harakat bilan yugurib ketsa, "bola chopib ketdi", aks holda, "yugurib ketdi", deyiladi. Lekin bunga e'tibor bermaslik natijasida ba'zan "chopmoq" fe'li o'rinda "yugurmak" va goho "yugurmak" fe'li o'rinda "chopmoq" fe'lini ishlatish holatlari uchrab turadi. "Chopmoq" fe'lining tub ma'nosi qo'lni biror qurol yoki qurolsiz ko'tarib urib, biror ishni amalga oshirmoqdir. "Yer chopmoq" deganda ketmonni ko'tarib yerga urish, "qilich chopmoq" deganda qilichni ko'tarib urish, "go'sht chopmoq" deganda boltani ko'tarib urish, "ot chopmoq" deganda qamchinni ko'tarib urish nazarda tutilgan.

Hozir shevalarda uchraydigan "loy chapti", adabiy tilidagi "betgachopar" degan iboralarida ham "chopmoq" fe'lining o'sha tub ma'nosi

Ba'zan nutqda ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlarning biri o'rinda ikkinchisini ishlatish holatlari uchrab turadi. Bu nutqqa salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu faslida shunday hollarning oldini olish maqsadida bir necha misol keltiramiz. Ba'zilar "tavsif" so'zi o'rinda "tasvir" so'zini ishlatadi. Vaholanki, "tavsif" va "tasvir" so'zlarining orasida ma'no farqi va har qaysisining o'z ishlatish o'rni bor.



ya'ni "sabaq" talaffuzi ba'zi shevalarda ham saqlangan. Ammo imlo lug'atlarida va o'zbek tilining izohli lug'atida "saboq" shakli berilgan. Shunga binoan, bu so'zni adabiy nutqda "saboq" deb talaffuz qiladilar va shunday yozadilar. Bunday qilinishiga yetakchi deb hisoblangan

Til va uni yozuvda aks ettirish murakkab hodisalardan bo'lgani uchun unga subyektiv aralashuv kutilmagan salbiy natijalarni keltirib chiqaradi. Buni yaxshi tushungan rus olimlari mana shuning uchun traditsiyani buzmaydi va o'quvchini qiyinchilikni yengishga o'rgatadi.

bir martadagisini bildiradi, darsning bir uchrashev uchun mo'ljallangan bo'lagi yoki shu bir uchrashevda o'tilgan bo'lagi va o'tilishi ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi uchun "saboq" hisoblanadi.

Bu so'zlar orasida hozir unutilish darajasiga kelib qolgan yana bir farq bor. Bu shundan iboratki, "dars" so'zi umumiy ma'noda emas, maxsus ma'noda oliy ta'limga nisbatan qo'llanganda, ilmi o'qib eshittirish yoki o'qimadan og'zaki bayon etish tushuniladi. Buning bayon qilinmog'i "dars aytmoq", tinglanmog'i "dars tinglamoq" deyiladi. Shu yo'l bilan o'rgatmak "dars bermak", o'rganmak "dars olmoq" deyiladi. "O'qish" bilan "tahsil" orasidagi farq shundan iboratki, tahsil so'zi o'rganishning turi jihatdan "o'qish" so'ziga nisbatan cheklangan bo'lib, u faqat oliy o'quv yurtidagi o'qishga nisbatan qo'llanadi. Masalan, "falonchi universitetda tahsil ko'rdi" deyiladi, lekin "maktabda tahsil ko'rdi" deyilmaydi. Ammo o'qish so'zi hammasiga nisbatan qo'llanadi. Bundan tashqari, "o'qish" so'zi "mutolaa" ma'nosida ham ishlatiladi.

Endi "shamol" so'zining ma'nodoshlari orasidagi farqni bilib olaylik. Havo harakatini bildiruvchi so'zlar "yel", "bod", "shamol", "janub", "sabo", "dabur", "dovul", "shurta", "esin", "nasim", "shabboda", "tundbod", "gamsel", "samum", "sarsar", "izg'irin", "bo'ron", "bo'rag'on", "purga", "to'fon", "tayfun", "uragan" yoki "uragan", "girdbod", "quyun", "uyurma"dir.

Shamol so'zining o'zi aslida shimoldan esgan yelni bildiradi. Lekin hozirgi o'zbek tilida bu so'z keng ma'noda qo'llanadi. Maxsus eski kitoblarda janubdan esgan yel "janub" deb ataladi, ammo bugungi o'zbekchada janub so'zi mazkur ma'noda butunlay ishlatilmaydi. G'arbdan esgan yel eski kitoblarda "dabur" deb yuritiladi, ammo hozir bu so'z dovul shaklini olgan va vayronalari keltiradigan kuchli shamolni bildiradigan so'zga aylangan.

"Sabo" so'zi she'rda ko'p ishlatilgani uchun o'z shakli va ma'nosini o'zgartirmagan, Sharqdan esadigan yel sabo deb ataladi. "Sabo" — tong yeli degan fikr ham bor. Bu fikrning paydo bo'lishiga tongda ko'pincha Sharqdan yel

esib turishi sabab bo'lgan. Demak, sabo aslida Sharqdan esadigan shamol bo'lib, tong yeliga nisbatan ham qo'llanar ekan. Bundan tashqari, bahor yeli ham sabodir. Sabo bahorda havoni ilitib, tabiatni uyg'otgani va tongda quyosh ta'sirida havoni tozalagani uchun hayotbaxsh yel hisoblanadi. Shuning uchun shoirlar saboga ko'p murojaat qiladi.

"Esin", "nasim" va "shabboda" yoki "shabada" so'zlari mayin yelni bildiradi. "Shabboda" aslida kun botgandan keyin tonggacha esadigan mayin yelni anglatadi. Lekin hozir ko'pchilik kunduzgi mayin yelni ham shabboda deydi. "Nasim" va "esin" so'zlari klassik adabiyotda ko'p ishlatiladi. "Samum" va "gamsel" so'zlari issiq shamolni, "sarsar", "izg'irin" yoki "izg'iriq" sovuq shamolni bildiradi. Bir ishni qilayotganda kishiga yordamlashadigan, masalan, kemani kerakli tomonga suradigan yel "shurta" deb ataladi.

"Bod" va "yel" so'zlari organizmda paydo bo'ladigan gazga, shunday gazlarni hosil qiladigan moddalarga nisbatan ham qo'llanadi. "Bo'ron", "buran", "buriya", "purga" degan so'zlarning kelib chiqishi bir. Bular "bo'r" o'zagidan yasalgan. Yetti yuz o'ttiz to'rtinchi yili zaharlab o'ldirilgan Bilga xoqon qabriga qo'yilgan bitiktoshda "Turgas xoqon susi o'tcha bo'rcha kelti" degan jumla bor. "Su" lashkar degani. Shu jumladagi "bo'r" so'zi zamonaviy mashhur rus turkshunoslari fikricha, bo'ron ma'nosidadir. Demak, "Turgas xoqon susi o'tcha bo'rcha kelti" jumlasini Turgas yoki Turgash xoqonning lashkari o'tu bo'ronday keldi degan mazmunda ekan. Bugungi o'zbek tilidagi "bo'ramoq" va "bo'ralamoq" fe'llari ham shu o'zakdandir.

Mazkur so'zlarning rus va o'zbek tillaridagi ma'nolari haqida gapiradigan bo'lsak, ruschada "buran" deganda, asosan, cho'l yoki dalada qishda yerdagi qorni to'ziatidan kuchli shamol tushuniladi. Rus tilida yana shu ma'noda "vyuga", "metel" va "metelitsa" degan so'zlar ham ishlatiladi. O'zbek tilida bu ma'noda "izg'irin" yoki "izg'iriq" so'zlari qo'llanadi. Taygada bo'ladigan shiddatli qorli bo'ron "purga" deyiladi.

O'zbek tilida "bo'ron" deganda, umuman, shiddatli shamol tushuniladi. Rus tilida bu ma'noda "buriya" so'zi qo'llanadi. Amerika qit'asi atrofida bo'ladigan o'ta kuchli okean shamolini "uragan" yoki "uragan", Janubi-sharqdagi Tinch okeanning kuchli shamolini "tayfun" deb ataydilar. Yog'in, shamol va sel natijasida yer yuzini yoki uning katta qismini suv bossa, bu "to'fon" deyiladi. "Tayfun" bilan "to'fon" so'zlarining kelib chiqishi bir.

Aylanma shamolga nisbatan o'zbek tilida "quyun", "uyurma" va "girdbod" so'zlari, rus tilida "vixir", "siklon" so'zi iste'mol qilinadi. Havoshunoslikda "siklon" deb havoning bulutlarni quyqushltiradigan aylanma harakatiga aytiladi. Siklonlar orasida yuqori havo bosimi hosil bo'lgan makon "antitsiklon" deyiladi.

O'tgan yili yurtdoshimiz Dilyora Keldiyorovanning dzyudo bo'yicha olimpiada chempioni bo'lgani butun xalqimizga g'urur bag'ishladi. Bu tarixiy g'alaba mamlakatimiz bo'ylab shodiyonaga aylandi. Diyoraning jasorati hali tildan tushmay turib, yana bir ayol sportchimiz — Gulshan Alimardonova ham jahon chempioni bo'ldi. Endi ayollar orasida karate bo'yicha ham o'zbek qizi dunyoda birinchi. Shu paytga qadar karate bo'yicha jahon chempionatida hamyurtimiz Dostonbek Otabolayev oltin medalni qo'lga kiritgan edi.

O'ZBEK KARATESI ILK AYOL QAHRAMONINI KASHF QILDI

Misir poytaxti Qohirada yuksak natijaga erishgan 19 yoshli Gulshan mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilayotgan alohida e'tibor samarasini ko'rsatdi. Ezgu niyatlar bilan qiz farzandiga Dilyora deb ism qo'yayotganlar safi endi Gulshan ismiga havasmandlar bilan kengaysa ajab emas. Aslida, Barchinoy va To'marislar avlodidan bo'lmish mag'rur, g'olib o'zbek qizlarini bugun sportning turli jabhalarida uchratish mumkin. O'zbek karate sporti sahifalarida ham afsonaviy ayol karatechi, birinchi Osiyo o'yinlari g'olibi Safiya Kaspo'latova, taniqli karate vakillari Sevinch Rahimova, Mohlaroy Hakimjonova, Bonu Egamberdiyeva kabi o'zbek ayol-qizlari haqida bitiklar bor. 50 kilogramm vazn toifasida "Qohira

— 2025" karate WKF bo'yicha jahon chempionatida oltin medalni qo'lga kiritgan Gulshan Alimardonova ham endi ularning safida.

— Keyingi yillarda Prezidentimiz tashabbusi bilan barcha sport turlariga, xususan, karatega ham alohida e'tibor berilayotgani, ayni yo'nalishni yanada rivojlantirish yuzasidan huquqiy-meyororiy hujjatlar imzolanyotgani yirik va nufuzli musobaqalarda samarasini ko'rsatmoqda, — deydi karate WKF bo'yicha terma jamoamiz bosh murabbiyi Sulaymon Yusupov. — Qohiradagi musobaqalardan ko'nglim to'ldi. Faqat bu yutuqlarni karrasiga ko'paytirish kerak. Gulshan Alimardonova kabi intiluvchan, umidli karatechilarni kashf qilishda bunday sport musobaqalari muhim o'rin tutadi.

Navbatchi muharrir: Sardor Tolliboyev
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy